

## Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2022-yilning 1- choragida amalga oshirilgan ishlar

Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasining Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishini boshqarma boshlig‘ I S. Shamshidinov ochib berdi va yig‘ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 - yil 22 yanvardagi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga doir Davlat Dasturi” doirasida tizim oldiga belgilab berilgan topshiriqlarni so‘zsiz, sifatli va o‘z muddatida ijrosini ta‘minlash borasida 2022-yilda amalga oshirilgan ishlar hamda statistika organlari oldida turgan kelgusidagi ustuvor vazifalar haqida gapirib o‘tdi.

Shuningdek, Statistika dasturi doirasida boshqarma va uning hududiy statistika organlari tomonidan 2022-yilning I choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma‘lumotlarni keltirib o‘tdi.

Jumladan, Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2022-yilning yanvar-martida Farg‘onaviyatibo‘yichayalpihududiy mahsulot hajmi joriy narxlarda 9 261,2 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2021-yilning yanvar-mart bilan taqqoslaganda 5,2 %ga o‘tdi. YAHM deflyator indeksi 2022-yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 114,7%ni tashkil qildi. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Farg‘ona viloyatining qo‘shgan hissasi 5,7 %ga yetdi.

Viloyat korxonalaridan 2022-yilning yanvar-mart oylarida Farg‘ona viloyati korxonalaridan 6 266,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 106,6 % ni tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 2022-yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 2 944,5 mlrd. so‘mni yoki 2021-yilning mos davriga nisbatan 104,0 %ni tashkil etdi.

Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022-yilning 1-aprel holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) **50 021** tani tashkil etib, ulardan **47 415** tasi yoki **94,7** % i faoliyat ko‘rsatmoqda. 2022-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda **1976** ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2022-yilning yanvar-mart oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4,8** trln. so‘mni, 2021-yilning mos davriga nisbatan o‘shirish sur‘ati **120,1** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi **4,7** trln so‘mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan **106,6** % ga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2022-yilning yanvar-mart oylarida 530,3 mln. AQSH dollarini, jumladan eksport – 171,5 mln. AQSH dollari va import – 358,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Farg‘ona viloyatida jami 1 570,2 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘shirish sur‘ati 2021-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 107,3 %ni tashkil etdi.

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, Farg‘ona viloyatining doimiy aholisi soni 2022-yil

1-aprel holatiga ko'ra, 3 913,4 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 17,0 ming kishiga yoki 0,4 %ga o'sdi.

2022-yilning yanvar-mart oylarida investitsion faollikni oshgani kuzatilib, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 125,5 %ni tashkil etdi va 2 750,2 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 70,0 %i yoki 1 925,7 mlrd. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 30,0 % yoki 824,5 mlrd. so'm moliyalashtirildi.